

MA'NAVIY MAKON: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLAR

Sh. Mirahmedova

Toshkent viloyati Bo'stonliq tumani

Madaniyat va turizm bo'limi bosh mutaxassisi

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika universiteti
mustaqil erkin tadqiqotchi

Annotatsiya. *Mazkur maqola jamiyatdagi ma'naviy makon-ma'naviyat sohasidagi ichki va tashqi tahdid hamda xavf-vatarga qarshi samarali kurashish, jamiyatda mafkuraviy immunitetni shakllantirishda ma'lum darajada xizmat qiladi.*

Tayanch so'zlar: *ma'naviy makon, „Ommaviy madaniyat“, diniy ekstremizm, missionerlik, mafkuraviy tahdid, konsepsiya.*

Ma'lumki milliy ma'naviyatimiz tarixi uch ming yilga borib taqaladi. Ayniqsa Sharq uyg'onish davri, o'rta asrlarda O'rta Osiyo mintaqasidagi ma'naviy yuksalishning teran ildizlari namoyon bo'ldi. „Inson ma'naviyati o'z-o'zidan shakllanib qolmaydi va jamiyatning kamoloti ham amalga oshiriladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlar samarasи, jamiyat a'zolari ongida milliy g'oyaning chuqur qaror topishi tufayli sodir bo'ladi“¹

Jamiyatdagi ma'naviy yangilanishlar har bir insonni qalban-ruhan ezgu maqsadlar yo'lida birlashtirishga xizmat qiladi. Bu yo'lida milliy g'oya, milliy ma'naviyat har bir xalqning amaliy dasturiga aylanadi. Birlashgan jamiyat yuksak metin qoyadek sobit turadi, birlasholmagan jamiyat qumday sochilib ketishi mumkin. Har bir mamlakatni, avvalo, birlashgan fidoyilar yuksaltiradi! Yangi yilning dastlabki kunlari ana shunday oydin niyatlar bilan boshlandi. O'tayotgan kunlar hayotimizni har tomonlama tahlil qilishni taqoza etmoqda. Shukronalar bo'lsinki, bizning sarhisob qiladigan, xulosa chiqaradigan, ibrat oladigan qadriyatlarimiz etarli. Ayniqsa, keyingi yillar mustaqil yurtimiz tarixida alohida qayd etiladigan yorqin voqealarga boy bo'ldi.

Bugungi ochiq muloqotimizning mavzusi –Yangi ma'naviy makonni yaratish borasidagi ishlar.

Bugungi kunda ma'naviyat bilan bog'liq masalalar tobora dolzarblashib bormoqdai. Bu, o'z navbatida, yangi Uyg'onish davri poydevorini yaratish jarayonida eng rivojlangan jamiyatlar talabiga javob beradigan, erkin va hur fikrli,

¹ Mizrob Bo'ronov "O'zbekistonda ma'naviy-ma'rifiy siyosatning tadrijiy rivojlanishi" Toshkent, "Ma'naviyat" 2016 y.[4-bet]

zamonaviy ma'naviy makonni shakllantirish zarurati nihoyatda muhim masalaga aylanayotganidan dalolat beradi.

Yangi ma'naviy makon nima?

Yangi ma'naviy makon nima? Mening nazarimda, u-biz orzu qilayotgan Yangi O'zbekistonning ma'naviy qiyofasi yaqqol aks etadigan, xalqimiz intilayotgan va el-yurtimiz baxtiyor yashaydigan ma'rifatli jamiyatdir.

Azaliy milliy qadriyatlarimiz, ota-bobolarimizdan meros bo'lib kelayotgan odob-axloq qoidalarining butunlay yo'qolish xavfi yuzaga kelayotgan hozirgi globallashuv sharoitida, ma'naviyat va ma'rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga, intilishiga e'tibor qaratish g'oyat birlamchi vazifamizdir.¹

Ma'naviy makon bu-yoshlar tarbiyasi, tarixga hurmat, e'tibor, milliy qadriyat, urf-odat an'analariga sodiq qolishdir. Har bir yosh avlod dunyoda kechayotgan siyosiy oqim, vayronkor g'oyalalar, jamiyatimiz taraqqiyotiga tahdid soluvchi zararli g'oyalardan hamda kurashlardan holi bo'lolmaydi albatta. Shunday kurashlardan biri "Ommaviy madaniyat" ga qarshi kurashdur.

Avvalambor, "**ommaviy madaniyat**" ko'rinishida kirib kelayotgan turli tahidilar, giyohvandlik, diniy ekstremizm, missionerlik kabi balo-qazolardan yoshlарimizni asrash, ularning ta'lim-tarbiyasiga har birimiz mas'ul ekanimizni hech qachon unutmasligimiz kerak. Bu borada biz asrlar davomida shakllangan milliy an'analarimizga, ajdodlarimizning boy ma'naviy merosiga tayanamiz.

Jamiyatimizda sog'lom fikr, sog'lom kuch ustuvor bo'lishi uchun biz ma'naviy hayotimizni yuksaltirish, aholi, avvalo yoshlарimizni turli zararli ta'sirlardan asrash, ularni har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalash haqida muntazam o'ylab, faol ish olib borishimiz zarur.²

Ayni vaqtda odamlarning qalbi va ongini egallahsga qaratilgan ma'naviy tahidilar ham tobora xavfli tus olayotganini hisobga oladigan bo'lsak birinchi o'rinda tizimli ravishda sektorbay, mahallabay va individual tarzda jamiyatimiz hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar va keng qamrovli islohotlarimiz talablaridan kelib chiqib targ'ibot va tashviqot ishlarini ko'paytirishimiz kerak. Xalqimizning tinchligi, jamiyatimiz barqarorligi, umuminsoniy, milliy va diniy qadriyatlarimizga qarshi qaratilgan, milliy o'zligimizni, xalqimizning asrlar davomida shakllangan hayot tarzini barbos qilishga yo'naltirilgan tahdidlarga qarshi kurashishning samarali usul va vositalarini ishlab chiqish va qo'llash ishlarini ham ham zamonga moslashimiz kerak.

Jamiyatimizning barqaror rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug'-aymoqchilik, oilaviy qadriyatlar va yoshlar

¹ Sh. Mirziyoyev, "Yangi O'zbekiston strategiyasi", Toshkent-2021, "O'zbekiston" nashriyoti, 2021 y. (276-277-b)

² Sh. Mirziyoyev, "Yangi O'zbekiston strategiyasi", Toshkent-2021, "O'zbekiston" nashriyoti, 2021 y. (276-277-b)

tarbiyasiga e'tiborsizlik kabi ichki illatlarga barham berishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalgalash oshirishimiz kerak. Mamlakatimizda diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni ta'minlash, fuqarolarimizni turli mafkuraviy tahdidlardan, zararli oqim va g'oyalardan himoya qilish masalalari doimo diqqat markazida bo'lishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mizrob Bo'ronov "O'zbekistonda ma'naviy-ma'rifiy siyosatning tadrijiy rivojlanishi" Toshkent, "Ma'naviyat" 2016 y.[4-bet]
2. Ma'naviy yangilanish – bunyodkor xalqimiz qudrati, o'zaro birdamlik ruhidagi ezgu intilishlarida namoyon bo'lmoqda
3. "Madaniyat" 20 Yanvar 20224666 Matn: Мұхтасар Тожимаматова
4. www.ziyo.uz
5. library.uz
6. Lex. Uz.